

## AXBOROT ERKINLIGI JURNALIST KASBIY FAOLIYATINING HUQUQIY KAFOLATI SIFATIDA

**Saidov Firdavs Ibragimovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> O'zDJTU, Axborot xizmati va jamoatchilik  
bilan aloqalar kafedrasi katta o'qituvchisi

### MAQOLA MALUMOTI

#### **MAQOLA TARIXI:**

Received: 06.01.2025

Revised: 07.01.2025

Accepted: 08.01.2025

### ANNOTATSIYA:

*Ushbu maqolada ommaviy axborot vositalari erkinligi tushunchasi, uning huquqiy va konstitutsiyaviy kafolatlari, jurnalistning kasbiy faoliyatida axborot va so'z erkinligining ahamiyati amaldagi qonunchilik asosida tahlil qilinadi.*

#### **KALIT SO'ZLAR:**

*Ommaviy axborot erkinligi, jurnalistning kasbiy faoliyati, Konstitutsiyaviy kafolat, axborot erkinligi, jurnalist huquqlari, jurnalist etikasi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi, axborot siyosati.*

*Muallif jurnalistlarning axborot erkinligi orqali jamiyatni xolis, aniq va haqqoniy ma'lumotlar bilan ta'minlashdagi o'rni hamda konstitutsiyaviy me'yordarning bu jarayondadagi ahamiyatini o'rganadi. Maqolada, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi va jurnalist etikasining muhimligi hamda davlatning bu erkinlikni himoya qilishdagi mas'uliyati haqida so'z boradi.*

**KIRISH.** Zamonaviy hayotni ommaviy axborosiz tasavvur qilib bo'lmaydi. U ko'pincha jamiyat va davlat hayotini belgilab beradi. Ammo qonun chiqaruvchilar ba'zan aynan inson, ya'ni axborot iste'molchisining manfaatlarini unutib qo'yadilar. Zotan, ommaviy axborot vositalarining erkinligi uning huquqlarini himoya qilish, jamiyat va davlatni himoya qilishga xizmat qilishi kerak. Shuning uchun qonun ishlab chiqarishda axborot sifatiga va samaradorligiga javob beradigan ommaviy axborot vositalarining manfaatlarini hisobga olish zarur, birinchi navbatda auditoriya oldidagi javobgarlikni ta'minlash lozim. Buning uchun axborotning huquqiy munosabatlari bo'yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqilishi

---

kerak, hozirda esa bunday mexanizm to‘liq mavjud emas. Mana shu holat bizning ishimizning dolzarbligini belgilab beradi.

Yuridik adabiyotlarida so‘z va axborot erkinligi tushunchasining bir nechta elementlari mavjud. Bular quyidagilardan iborat:

- 1) har bir shaxsning o‘z fikrini ochiq aytish erkinligi
- 2) matbuot va ommaviy axborot vositalarini senzuradan holi ekanligi va ular dai so‘z erkinligining qonuniy kafolatlanganligi
- 3) jamiyat manfaatlari va fuqarolarning haq-huquqlari bilan bog‘liq axborotlarni erkin olish imkoniyatlarining mavjudligi.<sup>12</sup>

Ishning maqsadi—axborot erkinligi jurnalistning kasbiy faoliyatining konstitutsiyaviy va qonuniy kafolati ekanligini atroflicha tahlil qilish hamda uning mohiyatini ohib berishdan iborat.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalaga oshirish talab etiladi:

- Zamonaviy konstitutsiyaviy nazariyada ommaviy axborot erkinligi tushunchasi va mohiyatini aniqlash;
- Axborotga egalik qilishnining qonuniy kafolatlarini o‘rganish;
- Zamonaviy normativ-huquqiy hujjatlar asosida jurnalistning kasbiy faoliyati erkinligiga baho berish.

Ishning metodologik asosini quyidagi metodlar tashkil etadi: solishtirish, tahlil, sintez, shuningdek, rasmiy-mantiqiy, solishtirma-huquqiy va boshqa metodlar.

### **Axborot erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlari**

Ommaviy axborot vositalari erkinligi jurnalist kasbiy faoliyatining muhim konstitutsiyaviy kafolatidir. Jurnalistika kasb sifatida yuqori darajadagi mustaqillikni, hokimiyatga tanqidiy yondashishni va voqealarni xolisona yoritishni talab qiladi. Ommaviy axborot vositalari erkinligisiz jurnalistlar jamiyatdagi rolini samarali bajara olmaydi.

Jurnalistlar faktlarni topish va tarqatish, voqealarni tahlil qilish va baholash uchun axborot erkinligidan foydalanadilar. Bu ularga ijtimoiy nazorat funksiyalarini bajarish, jamoatchilik fikrini yaratish va siyosiy jarayonlarga ta’sir qilish imkonini beradi. Biroq jurnalist erkinligi faqat axborot tarqatish huquqi bilan cheklanib qolmaydi.

Bundan tashqari, axborot erkinligi sharoitida jurnalistning kasbiy faoliyati xolislik va jamiyat oldidagi mas’uliyat kabi jurnalistikaning axloqiy me’yorlari va tamoyillariga

---

<sup>12</sup> Лукашова Е.А. Структура прав человека и гражданина // Права человека. Учебник для вузов. Отв. ред. – член-корр. РАН, докт. юрид. наук Е.А. Лукашова. М., 1999.

asoslanadi. Matbuot erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlari ushbu tamoyillarni himoya qilish uchun huquqiy asos bo‘lib, jurnalistlar huquqlarini ularning faoliyatiga nomaqbul aralashuvlardan himoya qilishni ta’minlaydi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda mualliflar ommaviy axborot erkinligi tushunchasiga turlicha ta’rif berishadi. Biroq ommaviy axborot vositalari erkinligining, huquqlarining, umuman, jurnalist, kasbiy faoliyatining konstitutsiyaviy kafolati sifatidagi ta’riflar deyarli yo‘q.

Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo‘lib, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini belgilab beradi. Demokratik mamlakatlarda so‘z va matbuot erkinligi o‘z konstitutsiyalarida yoki boshqa asosiy qonunlarida mustahkamlangan bo‘lib, bu institutning erkin jamiyat faoliyati uchun ahamiyatini kafolatlab beradi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 33-moddasida fikr va so‘z erkinligi, shuningdek, axborot olish, qayta ishlash va tarqatish erkinligi kafolatlanadi. Unga muvoqif “*Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishi ta’minalash uchun shart-sharoitlar yaratadi.*”

*Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minalash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yiladi*.<sup>13</sup>

Demak, har bir O‘zbekiston fuqarosi qonun hujjatlarida taqilanganmagan har qanday vositalar yordamida erkin axborot izlash, olish va tarqatish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining fikr va so‘z erkinligi to‘g‘risidagi me’yorlari “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro pakt” (18, 19-moddalar), “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” (19-modda) va “Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Evropa konvensiyasi” (9, 10-modda) kabi xalqaro hujjatlardagi fikr va so‘z erkinligiga oid me’yorlarga to‘la mos tushadi.

Axborot erkinligi haqidagi xuddi shunday qoidalar boshqa mamlakatlar konstitutsiyalarida ham mavjud. Masalan, AQSH Konstitutsiyasida so‘z va matbuot erkinligi hukumatga fuqarolarning so‘z erkinligi huquqini cheklashni taqilovchi Birinchi

<sup>13</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>

qo'shimcha orqali mustahkamlangan. Jumladan, AQSH konstitutsiyasiga kiritilgan Birinchi qo'shimchaga ko'ra "Kongress so'z va matbuot erkinligini taqiqlovchi qonunlar ishlab chiqishga haqqi yo'q".

N.M. Korkunov Fransiya, Angliya va Germaniyaning asosiy qonunlarini taqqoslab, ularda matbuot va so'z erkinligi insonlarni shaxsiy huquqi sifatida kafolatlatlanishini qayd etadi.<sup>14</sup> Olim fuqarolarning huquqlari, jumladan, matbuot erkinligining kafolatlash erkin davlat tuzumi rivojiga shubhasiz foyda keltiruvchi omil ekanligini ta'kidlaydi.

Korkunovning so'zlariga ko'ra "fuqarolik erkinligi" huquqlarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, davlat hokimiyati ular bilan chegaralanib, ularga rioya qilish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Bu davlat taraqqiyoti va manfaatlaridan kelib chiqadi. Fuqarolar erkinligini tan olmagan davlat, olimning fikricha, turg'unlikka mahkum. Ijtimoiy hayotning izchil rivojlanishining birinchi sharti va yagona manbai esa shaxs mustaqilligidir.

### Axborot erkinligining qonuniy kafolatlari

Axborot olish huquqi insonning faqat fuqaroviylar huquqigina emas, balki daxlsiz huquqi hamdir. Buning qonuniy kafolatlari quyidagi me'yordarda o'z aksini topgan: "**Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi**" "**Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt**", "**Inson huquqlari va asosiy erkinliklar to'g'risida Yevropa Konvensiyasi**" kabi xalqaro huquqiy me'yordarda axborot va g'oyalarni har qanday vosita bilan davlat chegaralaridan qat'i nazar izlash, olish va tarqatish erkinligi kafolatlanadi deyilgan.

✓ O'zbekiston Respublikasi "**Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida**"gi **Qonunning 3-moddasi**: "*Har bir fuqaroning axborot olish huquqi kafolatlanadi. Har kimning axborot izlash, olish, tadqiq etish, uzatish va tarqatish huquqi davlat tomonidan himoya qilinadi*".<sup>15</sup>

✓ O'zbekiston Respublikasi "**Axborot erkinligi prinsiplari va kaoflatlari to'g'risida**"gi **Qonunning 4-moddasi**: "*O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har kim axborotni moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqiga ega. Axborot olish faqat qonunga muvofiq hamda inson huquq va erkinliklari, konstitutsiyaviy tuzum asoslari, jamiyatning axloqiy qadriyatlari,*

<sup>14</sup> Коркунов Н. М. Русское государственное право. Том I. Введение и общая часть. Издание шестое, под редакцией и с дополнениями М.Б. Горенберга, приват-доцента С.-Петербургского Университета. С.-Петербург Типография М. М. Стасюлевича. Вас. Остров, 5 лин., 28 1909 г.

<sup>15</sup> "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. <http://www.lex.uz/docs/1319>

*mamlakatning ma'naviy, madaniy va ilmiy salohiyatini muhofaza qilish, xafsizligini ta'minlash maqsadida cheklanishi mumkin".<sup>16</sup>*

Shuningdek, “**Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”** Qonuni ham fuqarolar va OAV xodimlarining axborotlarni moneliksiz erkin olishini kafolaydigan hujjatlardan biridir.

Davlat organlaridan axborotni izlash va olish huquqi insonning yashash, fikrini erkin ifoda etish, ovoz berish yoki saylash singari huquqlariga nisbatan birmuncha yangi huquq bo‘lib, ular u qadar qadimiyligi va qimmatli huquq sanalmaydi. Axborot olish faqat XX asrning o‘rtalariga kelib, birinchi marta qatiy talab sifatida o‘rtaga chiqdi.<sup>17</sup> Bu huquq g‘arblik faylasuflar tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, demokratik jamiyatning talablariga binoan saylov jarayonlarini shaffofigini ta’minlash va u bilan bog‘liq axborotlarni davlat organlaridan monesiz olishga bo‘lgan huquqning ta’minlanishini nazarda tutgan. Shundan keyin davlat organlari to‘g‘risidagi axborot fuqarolarning erkin ovoz berish va saylov huquqini o‘zları anglagan holda amalga oshirish uchun favqulodda muhim ahamiyat kasb etdi.

Axborot borasida O‘zbekiston qonunchiligidagi axborot izlash, olish va tarqatish huquqi “har kimga” berilgani bilan axborotning manbai va uning muallifi kimligi hamda ana shu olingan axborotni tarqatilishi, ya’ni e’lon qilinishi muallifning roziliginisiz amalga oshirilmaydi. Shu bilan birga e’lon qilinayotgan axborotning to‘g‘riligi uchun javobgarlik ommaviy axborot vositalari zimmasiga yuklanadi. Javobgarlik bor joyda, albatta burch, mas’uliyat singari huquqiy meyorlar bilan bog‘liq tushunchalar ham bo‘ladiki, bu bevosita shu jarayonda huquqiy mezonlarning himoyachisi – qonunga ehtiyojni keltirib chiqaradi<sup>18</sup>.

### **Axborot olishga oid cheklarlar**

Bir narsani unutmaslik zarurki har doim ham axborotlardan foydalanish erkin bo‘lmaydi. Ya’ni ba’zan axborotlarni olish amaldagi qonunchilik bilan ham cheklanishi mumkin.

Tadqiqotchi V.N. Lopatin Konstitutsiyaviy qoidalarni tahli etgan holda fuqarolarning axborot olish huquqlarini cheklashni quyidagi qismlarga ajratadi:

- amaldagi konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish maqsadida;
- boshqa shaxslarning qonuniy huquqlarini, axloqni, salomatlikni himoya qilish maqsadida;
- davlat mudofaasi va xafsizligini ta’minlash maqsadida;

<sup>16</sup> “Axborot erkinligi prinsiplari va kaofatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. <http://lex.uz/acts/52268>

<sup>17</sup> Рихтер А.Г. Правовые основы журналистики. Учебник. – Москва. 2002.

<sup>18</sup> N.Qurban, K.Bahriyev. Media huquqi. Darslik – Toshkent. 2022

- tartibsizliklarni oldini olish va jinoyatchilarga qarshi kurashish maqsadida;
- maxfiy ma'lumotlarni oldini olish maqsadida.<sup>19</sup>

Axborot olish imkoniyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi. Bular - **ochiq axborotlar va olinishi chegaralangan, qonun bilan himoya qilinadigan axborotlardir.**<sup>20</sup>

**Ochiq axborotlar.** Bunday axborotlar uning oshkorali, hamma olishi mumkinligi, ochiqligi va haqiqiyligi bilan belgilanadi. Bu axborot olish erkinligining asosiy tamoyili hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi Qonunning 4 va 7-moddalarida, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 6 va 8-moddalarida aynan shunday axborotlar nazarda tutiladi.

Bunday axborotni berish davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxona, muassasa, tashkilotlar va mansabdar shaxslarning huquqi emas, balki majburiyatidir. O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida" gi Kodeksning 44-moddasiga binoan agar ochiq axborotlar berilmasa yoki asossiz ravishda rad etilsa, mansabdar shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortilishi belgilab qo'yilgan.

**Olishi chegaralangan, qonun bilan himoya qilinadigan axborotlar.** Bu kabi axborotlar amaldagi qonunchilikda belgilangan bo'lib O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat qilish, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib etish, davlat siri bo'lgan ma'lumotlarni yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni oshkor etish, jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladigan boshqa xatti-harakatlarni sodir qilish maqsadida foydalanilishiga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, insonlarning shaxsiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan axborotlar ham qonun bilan himoya qilinadigan axborotlar ro'yxatiga kiritiladi. Bunday axborotlardan OAV foydalanishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Yuqoridagi ba'zi axborot turlariga alohida to'xtalib o'tamiz.

**Davlat sirlari.** "Davlat sirlarni saqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunning 1-moddasiga ko'ra "Davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxatlar bilan chegaralab qo'yiladigan alohida ahamiyatli, mutlaqo maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-tehnikaviy va o'zga xil ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining davlat sirlari hisoblanadi. Davlat sirlari O'zbekiston Respublikasining mulkidir.

Davlat sirlari 3 ta guruhga bo'linadi. Bular:

**1)davlat sirlari 2) harbiy sirlar 3) xizmat sirlari**

<sup>19</sup> Лопатин В.Н. Защита информации или защита права на информацию? // Информационное право. М., 2005.

<sup>20</sup> N.Qurban, F.Saidov. Jurnalistikaning xalqaro huquqiy asoslari. Darslik – Toshkent. 2020

Demak, yuqoridagi guruhlarga taaluqli bo‘lgan axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish qonun bilan taqiqlanadi. Ba’zan jurnalistlarimiz tomonida ushbu guruhga taaluqli bo‘lgan ma’lumotlarni davlat organlaridan so‘rab olishga bo‘lgan harakatlarni guvohi bo‘lamiz. Tabiiyku bu kabi ma’lumotlar davlat organlari tomonidan taqdim etilmaydi. Bu holat jurnalistlar tomonidan noto‘g‘ri talqin qilinadi. Jurnalistlar davlat organlarini axborot bermayotganlikda ayblashadi. Aslida esa bu jurnalistning amaldagi huquq va majburiyatini yetarlicha bilmaganidan dalolat beradi.

Biroq bu cheklovlar ba’zan davlat organlari tomonidan suiste’mol qilinadi. Ya’ni ular tomonidan oddiy axborotlar ham davlat siri sifatida malakalanib jurnalistlarga taqdim etilmaydi. Xususan, bularning ichida xizmat siri tushunchasi o‘ta mavhum bo‘lib ko‘pincha jurnalistlarning axborot olish imkoniyatlarini cheklaydi. Axborotni taqdim etgisi kelmayotgan tashkilot, yoki uni yashirmoqchi bo‘lgan mansabdar shaxs bu xizmat siri deya ma’lumotni bermaydi. Xo‘s sh bunday holatda jurnalist qanday yo‘l tutishi kerak?! Jurnalist qonunchilikka muvofiq taqdim etilishi cheklanayotgan axborot davlat siri ekanligi bo‘yicha yozma asosnoma so‘rash huquqiga erga.

**Shaxsiy ma’lumotlar.** O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi shaxsiy hayotga oid ma’lumotlarni oshkor qilmaslikka doir bir qator normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Bu masala asosan shaxsiy ma’lumotlar va maxfiylikni himoya qilishga oid qonunlar va me’yoriy hujjatlar orqali tartibga solinadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonun, “Axborot erkinligi prinsiplari va erkinligi to‘g‘risida” gi qonuni, shuningdek, ma’muriy va jinoyat kodekslarida ham inson shaxsiy hayoti bo‘yicha axborotlarni oshkor qilmaslik bo‘yicha bir qator me’yorlar belgilab berilgan. Shu sababli jurnalistlar tomonidan insonlarning shaxsiy hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish taqiqlanadi. Biroq axborot egasining roziligi bilan ushbu axborotlari tarqatish mumkin.

## XULOSA

Axborot erkinligi – bu nafaqat fikr va so‘z erkinligini ta’minlovchi prinsip, balki jurnalistlarning o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi uchun huquqiy kafolatlar bilan ta’milangan asosdir. Jurnalistlar axborot manbalariga erkin kirish, kerakli materiallarni to‘plash va ommaga taqdim etish, shuningdek, turli xil fikrlarni muhokama qilishda erkin bo‘lishi lozim. Aks holda, ommaviy axborot vositalarining o‘z vazifasini bajarishiga to‘sinqilik qilinadi, bu esa jamiyatda korrupsiya, noqonuniylik yoki norozi bo‘lgan masalalar haqida aholi ma’lumotga ega bo‘lmashligiga olib kelishi mumkin.

Huquqiy kafolatlar, shuningdek, jurnalistlarning o‘z kasbiy faoliyatlarini amalga oshirishda davlat tomonidan himoya qilinishini anglatadi. Jurnalistlar axborot olish yoki tarqatish jarayonida xavf ostida bo‘lishi mumkin. Bular tahdidlar, ta’qiblar yoki hatto jismoniy tahdidlarga duchor bo‘lishi ehtimoli mavjud. Shuning uchun, axborot erkinligini himoya qilish uchun qonuniy kafolatlar yaratish zarur, chunki u jurnalistlarning himoyasi va mustaqilligining asosidir.

Axborot erkinligi shunday asosiy huquqiy kafolatlarni taqdim etadiki, jurnalistlar, ularning o‘z faoliyatini amalga oshirishlari uchun zarur bo‘lgan axborotlarni erkin to‘plab, xavfsiz va qonuniy tarzda tarqatish imkoniga ega bo‘lishadi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatda erkin fikrlar almashinushi, hukumatning javobgarligi va fuqarolar huquqlarining himoya qilinishiga yordam beradi.

#### **Maqolani yozish jarayonida kelib chiqqan xulosalar:**

**Birinchidan, axborot erkinligi – jurnalist kasbiy faoliyatini huquqiy kafolatlash.** Axborot erkinligi jurnalistlarning o‘z vazifalarini mustaqil va xolis tarzda bajarishlari uchun asosiy huquqiy kafolat sifatida muhim ahamiyatga ega. Bu erkinlik jurnalistlarga ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni oshkora va adolatli yoritish imkoniyatini taqdim etadi.

**Ikkinchidan, axborot erkinligini ta’minalashda davlatning roli va mas’uliyati oshirish.** Axborot erkinligini ta’minalashda davlatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlarining roli juda muhim. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar, tartibga solish mexanizmlari va institutlar axborot erkinligini himoya qilishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

**Uchinchidan, axborot erkinligining chegaralaridan chiqmaslik.** Axborot erkin bo‘lishi, shuningdek, ma’lum chegaralarga ega bo‘lishi kerak. Ma’lumotlarni himoya qilish va xavfsizlik nuqtai nazaridan ba’zi axborot turlarini cheklash zarurati tug‘ilishi mumkin. Bu cheklolvar, ayniqsa, shaxsiy hayotni hurmat qilish va davlat xavfsizligini ta’minalash maqsadida amalga oshiriladi.

**To’rtinchidan, normativ-huquqiy islohotlarning zarurligi.** Axborot erkinligini kafolatlash uchun davlatning normativ-huquqiy bazasini mustahkamlash va islohotlar amalga oshirilishi zarur. Jurnalistlarning huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan maxsus mexanizmlar, shu jumladan, huquqiy va institutlararo mexanizmlar rivojlantirilishi kerak.

**Beshinchidan, xalqaro tajribalardan foydalanish zarurligi.** Axborot erkinligi va jurnalistlarning huquqlarini himoya qilish borasida xalqaro tajribalardan foydalanish, samarali siyosat va qonunlar ishlab chiqish uchun muhimdir. Xalqaro me’yorlar va standartlar, milliy qonunchilik bilan uyg‘unlashtirilishi kerak.

*Oltinchidan, axborot erkinligi va huquqiy ta'minotning muvozanati.* Axborot erkinligi, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini cheklovlarsiz amalga oshirishi uchun, huquqiy ta'minot va jamoatchilik xavfsizligini muvozanatlash zarur. Bu o'zaro bog'liq omillar o'rtasidagi nozik balansni topish uchun doimiy ishlashni talab qiladi.

Ushbu xulosalar, axborot erkinligi va jurnalist kasbiy faoliyatining huquqiy kafolati masalasini chuqurroq tahlil qilishni va yanada samarali huquqiy mexanizmlar yaratishni taqozo etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. <http://www.lex.uz/docs/1319>
3. "Axborot erkinligi prinsiplari va kaoflatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. <http://lex.uz/acts/52268>
4. N.Qurban, K.Bahriyev. Media huquqi. Darslik – Toshkent. 2022.
5. N.Qurban, F.Saidov. Jurnalistikaning xalqaro huquqiy asoslari. Darslik – Toshkent. 2020.
6. Коркунов Н. М. Русское государственное право. Том I. Введение и общая часть. Издание шестое, под редакцией и с дополнениями М.Б. Горенберга, приват-доцента С.-Петербургского Университета. С.-Петербург Типография М. М. Стасюлевича. Вас. Остров, 5 лин., 28 1909 г.
7. Лопатин В.Н. Защита информации или защита права на информацию? // Информационное право. М., 2005.
8. Лукашова Е.А. Структура прав человека и гражданина // Права человека. Учебник для вузов. Отв. ред. – член-корр. РАН, докт. юрид. наук Е.А. Лукашова. М., 1999.
9. Право на информацию // Информационное право / Под ред. Б.Н. Топорнина. СПб., 2001.
10. Рихтер А.Г. Правовые основы журналистики. Учебник. – Москва. 2002.
11. Кенжабаев, Ш. А. (1998). История обучения иностранному языку в общеобразовательной школе южных областей Узбекистана (Сурхандарьинская и Кашкардарьинская области) и пути его совершенствования на современном этапе.
12. Abdulxalimovich, K. S. (2024). VETERINARIYA YO 'NALISHIDAGI TALABALARING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINI O 'QITISH TEKNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 39(2), 77-81.

13. Abdulkhalimovich, K. S. (2024). VETERINARIYA YO 'NALISHIDAGI TALABALARING KASBIY KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINI O 'QITISHNING TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY PEDAGOGIK ASOSLARI. Journal of new century innovations, 46(3), 119-126.
14. Abdulkhalimovich, K. S. (2024). SCIENTIFIC-THEORETICAL PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF IMPROVING THE TECHNOLOGIES OF TEACHING ENGLISH IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE VETERINARY DIRECTION. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods, 2(2), 22-28.
15. Кенжабоев, Ш. А. (2023). ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ-ВЕТЕРИНАРОВ. Лучшие интеллектуальные исследования, 9(3), 103-113.
16. Кенжабоев, Ш. А. (2023). ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ-ВЕТЕРИНАРОВ. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 17, 177-183.
17. Nishonov, M., & Kenjaboev, S. (2023). THE SIGNIFICANCE OF THE USE OF CHEMICAL EXPERIMENTS IN THE STUDY OF THE TOPIC "PATTERNS OF CHEMICAL REACTIONS". Science and innovation, 2(B5), 53-56.
18. Kenjaboev, S. (2023). FEATURES OF TEACHING ENGLISH IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF VETERINARY STUDENTS. Science and innovation, 2(B7), 166-170.
19. Kenjaboev, S. (2023). THE PROBLEM AND SOLUTION OF USING ENGLISH LANGUAGE TEACHING TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF VETERINARY STUDENTS. Science and innovation, 2(B7), 159-165.
20. Buronov, N., & Shog'ulomov, D. (2020). PREVENTING INFORMATION HAZARDS IN ONLINE PUBLICATIONS. In European Scientific Conference (pp. 25-26).